JISMONIY SHAXSLAR UCHUN “MIKROQARZ” OFERTA SHARTNOMASI

OGOHLANTIRISH!

Kredit bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilmasligi quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin:
- qarzdorlikning umumiy miqdori oshishiga;
- qarzni undirish bo‘yicha majburiy ijro choralarining qo‘llanilishiga;
- kredit bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni so‘ndirish uchun sizning nomingizda bo‘lgan mol-mulkka undiruv qaratilishiga, agar mol-mulkni sotishdan tushgan mablag‘lar qarzni to‘liq so‘ndirish uchun yetarli bo‘lmasa, qarzdorlikning qolgan qismi sizning zimmangizda saqlanib qolishiga;
- uchinchi shaxs tomonidan garovga qo‘yilgan mol-mulkka undiruv qaratilishiga yoki qarzdorlikni so‘ndirish majburiyatining kafil zimmasiga yuklatilishiga;
- kafil yoki garovga qo‘yuvchi tomonidan so‘ndirilgan qarzdorlik summasining keyinchalik sizdan undirilishiga;
- hisobvaraqlaringizdagi mablag‘larga xatlov qo‘yilishiga;
- sud yoki davlat ijrochisining qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasidan chiqish huquqingiz vaqtincha cheklanishiga;
- kredit tarixingizga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga va kelgusida kredit olish imkoniyatingiz cheklanishiga.

Mazkur oferta shartnomasi (keyingi o‘rinlarda — Shartnoma) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (Shartnoma matnida keyingi o‘rinlarda — O‘zR FK) 369-moddasi 2-qismiga muvofiq “Ipoteka-bank” ATIB (Shartnoma matnida keyingi o‘rinlarda — “Bank”) va “Ipoteka-Mobile” mobil ilovasiga kirish imkoniyatini oluvchi (undan foydalanuvchi) har qanday jismoniy shaxs (Shartnoma matnida keyingi o‘rinlarda — “Mijoz”) o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Bank mazkur Shartnoma orqali mikroqarz taqdim etish to‘g‘risidagi “Mikroqarz” ommaviy elektron oferta shartnomasini (Shartnoma matnida keyingi o‘rinlarda — “Shartnoma”) tuzishni taklif etadi.

Mijoz O‘zR FKning 370-moddasiga muvofiq, mazkur Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish orqali Bankning taklifini aksept qiladi hamda mazkur Shartnomada belgilangan tartib va hajmda Bank bilan Shartnoma tuzishga o‘z roziligini beradi.

Mazkur Shartnoma Bankning “Ipoteka-Mobile” mobil ilovasida joylashtiriladi hamda Bankning rasmiy veb-saytida Mijozlar e’tiboriga yetkaziladi.

I. UMUMIY TA’RIFLAR

1.1. Mikroqarz — O‘zbekiston Respublikasining “Mikromoliyalashtirish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, ushbu Shartnomada bayon etilgan shartlar asosida, muddatlilik, to‘lovlilik, qaytarishlilik va ta’minlanganlik shartlariga rioya etgan holda, O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan jismoniy shaxslarga “Ipoteka-bank” ATIBning mobil ilovasidan foydalangan holda milliy valyutada mikroqarz taqdim etilishi (onlayn format), shu jumladan, Bank filialida dastlabki skoringdan o‘tgan va arizani mobil ilovada davom ettirayotgan jismoniy shaxslarga (filial-onlayn format) mikroqarz taqdim etilishi tushuniladi;

1.2. Bank kartasi — tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslar uchun chiqarilgan plastik karta;

1.3. Mijoz — ish haqi doirasida ochilgan bank kartalarini Bankning mobil ilovasiga biriktirgan va “Ipoteka-bank” ATIBning mobil ilovasi orqali mikroqarz xizmatiga buyurtma bergan jismoniy shaxs, shu jumladan, Bank filialida skoringdan o‘tgan va arizani mobil ilovada davom ettirayotgan jismoniy shaxs;

1.4. “Ipoteka-bank” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda — mobil ilova) — mobil qurilmalar (smartfon, planshet va boshqalar) uchun mo‘ljallangan, Bank tomonidan ayrim xizmatlarni masofadan turib ko‘rsatish imkonini beruvchi dasturiy ta’minot bo‘lib, u orqali filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha arizani davom ettirish, skoring natijasi bilan tanishish, Shartnomani aksept qilish va mikroqarz mablag‘larini olish ham amalga oshiriladi;

1.5. Oferta — Bank va taklifni qabul qiluvchi shaxs o‘rtasida aniq shartlar belgilangan shartnomani tuzish niyati to‘g‘risida Bankning mobil ilovasida (shuningdek, Bankning rasmiy veb-saytida) e’lon qilingan taklifi;

1.6. Aksept — Mijozning oferta shartlarini qabul qilish to‘g‘risidagi roziligi bo‘lib, u Mijoz tomonidan mobil ilovada ushbu Shartnomaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ifodalanadi;

1.7. Ssuda hisobvarag‘i — hisobvaraqlar rejasiga muvofiq ochilgan, Mijozga taqdim etilgan mikroqarzni aks ettiruvchi maxsus hisobvaraq;

1.8. Elektron hamyon — Bankda ochilgan, Mijoz masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tizimi orqali foydalanishi mumkin bo‘lgan Mijozning maxsus hisobvarag‘i;

1.9. Kredit arizasi — mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida so‘ralayotgan mikroqarz to‘g‘risidagi umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan hamda Mijoz tomonidan Mijozga mikroqarz taqdim etish imkoniyatini baholash maqsadida mobil ilova orqali masofadan turib Bankka yuboriladigan hujjat (filialda boshlangan mikroqarz olish uchun ariza bo‘yicha — skoring natijasi asosida Mijoz tomonidan mobil ilovada davom ettiriladigan ariza);

1.10. Masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tizimi — bank xizmatlaridan masofadan foydalanish imkoniyatini ta’minlovchi dasturiy vositalar, shu jumladan, “Ipoteka-Mobile” mobil ilovasi;

1.11. **Bank xodimi — Bank tomonidan** Mijozni identifikatsiya qilish, uning skoringini o‘tkazish va skoring natijasi haqida xabardor qilish uchun vakolat berilgan xodim;

1.12. **Bank ofisida boshlangan mikroqarz (filial-onlayn format)** — Mijoz Bank filialida skoringdan o‘tganidan va skoring natijasi to‘g‘risida ma’lumot olganidan so‘ng mobil ilovada mikroqarz olish uchun arizani davom ettirishi, mobil ilovada Shartnomani aksept qilishi va mikroqarz mablag‘larini mobil ilova orqali olishini nazarda tutuvchi mikroqarz taqdim etish usuli. Mikroqarz olish uchun arizani to‘liq mobil ilova orqali topshirish onlayn format deb ataladi;

1.13. **Autentifikatsiya ma’lumotlari** — Mijozning mobil ilovaga kirishi va operatsiyalarni tasdiqlashi uchun foydalaniladigan parol, SMS-kod (bir martalik kod), biometrik ma’lumotlar va boshqa identifikatorlar.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank Mijozga kredit olish uchun arizada Mijoz tomonidan ko‘rsatilgan miqdorda, biroq Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblangan mumkin bo‘lgan moliyalashtirish summasidan (filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha — skoring natijalariga ko‘ra belgilangan limitdan) oshmagan miqdorda mikroqarz taqdim etadi, Mijoz esa mikroqarzni o‘z vaqtida so‘ndirish va undan foydalanganlik uchun foizlarni to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2.2. Mikroqarz Mijoz tomonidan quyidagi usullardan biri orqali olinishi mumkin:

a) onlayn format — arizani to‘liq mobil ilova orqali topshirish;

b) filial-onlayn format — Bank filialida skoringdan o‘tish va arizani mobil ilovada davom ettirish. Mazkur Shartnoma shartlari har ikkala usulga ham bir xil qo‘llaniladi;

usullar faqat ariza boshlangan va skoring o‘tkazilgan joyi bilan farqlanadi.

2.3. Filialda Mijozga ma’lum qilingan skoring natijasi dastlabki xususiyatga ega bo‘lib, Bank zimmasiga mikroqarz taqdim etish majburiyatini yuklamaydi. Mikroqarzning yakuniy miqdori, foiz stavkasi, muddati va so‘ndirish jadvali mobil ilovada aks ettiriladigan hamda Mijoz tomonidan tasdiqlanadigan ma’lumotlar asosida belgilanadi.

III. SHARTNOMANI TUZISH SHARTLARI VA JOYI

3.1. Shartnomaning Mijoz tomonidan aksept qilinishi bir necha usulda amalga oshiriladi:

a) masofadan turib, mobil ilovada mikroqarz olish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni amalga oshirish orqali.

b) oflayn tarzda, Bankning istalgan filialiga yoki Mijozlarga xizmat ko‘rsatish ofisiga tashrif buyurish, dastlabki arizani oflayn tarzda topshirish va Bank filialida skoringdan o‘tish, so‘ngra jarayonni Bankning mobil ilovasida davom ettirish orqali. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha Shartnomaning yakuniy aksepti Mijoz skoring natijasi, Shartnoma shartlari va so‘ndirish jadvali bilan tanishib chiqqach, ularni Bank tomonidan belgilangan usulda (“Kreditni rasmiylashtirish” tugmasini bosish va autentifikatsiya ma’lumotlari bilan tasdiqlash yo‘li bilan) tasdiqlagan paytda Mijozning o‘zi tomonidan mobil ilovada amalga oshiriladi.

3.2. Bank va Mijoz o‘rtasidagi Shartnoma Mijoz tomonidan aksept qilingan va mikroqarz summasi Mijozning bank hisobvarag‘iga kelib tushgan paytdan e’tiboran tuzilgan hisoblanadi.

3.3. Shartnoma Mijozga mikroqarz taqdim etgan Bank filialining hududiy joylashgan joyida tuzilgan hisoblanadi.

3.4. Mijozning Bank filialida skoringdan o‘tishi va skoring natijasi to‘g‘risida ma’lumot olishi Shartnomaning to‘liq aksept qilinishi va tuzilishi hisoblanmaydi hamda Mijoz zimmasiga mikroqarz olish majburiyatini yuzaga keltirmaydi.

3.5. Filial xodimi Mijoz nomidan Shartnomani aksept qilish, so‘ndirish jadvalini tasdiqlash yoki Mijozning autentifikatsiya ma’lumotlaridan foydalanish huquqiga ega emas.

IV. MIKROQARZ AJRATISH SHARTLARI VA TARTIBI

4.1. Mikroqarz Shartnoma shartlariga muvofiq, Bankning mobil ilovasi orqali elektron ariza asosida, Mijozning elektron arizasida ko‘rsatilgan miqdorda va muddatga (filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha esa skoring natijasi asosida mobil ilovada davom ettirilgan arizaga muvofiq) ajratiladi. Bunda Mijoz mobil ilovada “Onlayn kredit olish” tugmasini bosish orqali mikroqarz olish uchun ariza topshirishi lozim. Bank filialida skoringdan o‘tgan Mijoz mobil ilovada filialda boshlangan arizani tanlashi, mazkur Shartnoma bilan tanishib chiqishi va kredit olish uchun arizani davom ettirishi lozim.

4.2. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha Mijoz Bank filialiga shaxsan murojaat qiladi. Filial xodimi Mijozni uning shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida identifikatsiya qiladi hamda mazkur Shartnoma matni mobil ilovada va Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilganligi, shuningdek, mikroqarz olish shartlari to‘g‘risida Mijozni xabardor qiladi.

4.3. Skoringni o‘tkazishdan oldin Filial xodimi Mijozdan Bank tomonidan belgilangan shaklda (yozma yoki elektron) uning shaxsga doir ma’lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurosi va boshqa rasmiy manbalardan ma’lumotlarni olishga roziligini oladi. Mijozning bunday roziligi mavjud bo‘lmagan taqdirda, skoring o‘tkazilmaydi.

4.4. Skoring Bankning skoring tizimida inson omili ishtirokisiz avtomatik ravishda o‘tkaziladi. Filial xodimi skoring natijasiga ta’sir ko‘rsatish, uni o‘zgartirish yoki Mijozga skoring natijalari bo‘yicha belgilanmagan shartlarni va’da qilish huquqiga ega emas.

4.5. Skoring natijalariga ko‘ra, Filial xodimi Mijozga mikroqarz ajratilishi mumkin bo‘lgan moliyalashtirish miqdori (limit), foiz stavkasi va muddatlari to‘g‘risida ma’lumot beradi yoki Mijozning kreditni to‘lash qobiliyati yetarli emasligi sababli mikroqarz ajratish imkoni mavjud emasligini ma’lum qiladi. Skoring natijasi Mijozga mobil ilovada ham aks ettiriladi.

4.6. Skoring natijasi 1 (bir) kalendar kuni davomida amal qiladi. Mijoz ko‘rsatilgan muddat ichida mobil ilovada arizani davom ettirishi shart; aks holda, skoring natijasi o‘z kuchini yo‘qotadi va skoringdan qayta o‘tish uchun Mijoz Bank filialiga yana murojaat qilishi lozim.

4.7. Mijoz mobil ilovaga kiradi, skoring natijasi bilan tanishadi, skoring natijalariga ko‘ra belgilangan limitdan oshmaydigan summani va ruxsat etilgan muddatni tanlaydi, ish haqi kartasini (agar u avval biriktirilmagan bo‘lsa) biriktiradi, so‘ndirish jadvalini va mazkur Shartnoma shartlarini tasdiqlaydi.

4.8. Mijoz mobil ilovada arizani davom ettirayotgan paytda Bank skoring natijasining dolzarbligini (ish haqi tushumlari, kredit majburiyatlari va boshqa ma’lumotlarning o‘zgarmaganligini) tekshiradi. Mijozning ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, Bank limitni kamaytirish yoki mikroqarz ajratishni rad etish huquqiga ega, bu haqda Mijoz mobil ilova orqali xabardor qilinadi.

4.9. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha mikroqarz mablag‘lari filialda naqd pul shaklida berilmaydi; ular Mijoz tomonidan mobil ilova orqali olinadi.

4.10. Texnik nosozlik sababli skoring natijasi mobil ilovada aks etmasa yoki arizani davom ettirish imkoni bo‘lmasa, Mijoz Bank filialiga yoki Bankning aloqa markaziga murojaat qiladi. Bank tomonidan nosozlik bartaraf etilgunga qadar skoring natijasining amal qilish muddati tegishli ravishda uzaytirilgan deb hisoblanadi.

4.11. Kredit olish uchun ariza ko‘rib chiqilganidan so‘ng (filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha — mobil ilovada davom ettirilgan ariza) Bank Mijozga mobil ilovada Bank tomonidan tasdiqlangan ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq moliyalashtirish summasi to‘g‘risida ma’lumot beradi yoki Mijozning kreditni to‘lash qobiliyati yetarli emasligi sababli mikroqarz ajratish imkoni mavjud emasligini ma’lum qiladi.

4.12. Shartnomani aksept qilish orqali Mijoz o‘z roziligini bildiradi hamda Bankka mikroqarzni ko‘rib chiqish, ajratish va so‘ndirish jarayonlari bilan bog‘liq maqsadlarda, O‘zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni talablariga muvofiq, zarur hajmda rasmiy manbalardan Mijozning shaxsga doir ma’lumotlarini so‘rash, olish, qayta ishlash va boshqa shaxsga uzatishga ruxsat beradi. Mijoz tomonidan Bank filialida skoringdan o‘tish vaqtida berilgan rozilik mazkur rozilikni to‘ldiradi va uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4.13. Bank tomonidan Mijoz uchun tasdiqlangan kredit summasi Bankda mavjud bo‘lgan Mijoz to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida, Mijozning kreditni so‘ndirish qobiliyatini baholash orqali belgilanadi. Mijoz Bank taklif etadigan mumkin bo‘lgan moliyalashtirish summasidan oshmaydigan miqdordagi mikroqarzni olish yoki undan voz kechish huquqiga ega, bunda ushbu Shartnoma shartlarida so‘ndirish muddatlari ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim.

4.14. Bank tomonidan ajratilgan mikroqarz bo‘yicha hisob-kitoblar Mijozning ssuda hisobvarag‘ida yuritiladi.

4.15. Mikroqarz Bank tomonidan quyidagi tartibda ajratiladi:

- ish haqi kartasi mobil ilovaga biriktirilganidan so‘ng;
- oferta shartnomasi mobil ilovada tasdiqlanganidan so‘ng;
- aksept amalga oshirilgan zahoti, biroq keyingi ish kunidan kechiktirmay, mikroqarz mablag‘lari elektron hamyonga o‘tkaziladi.

4.16. Mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq, mikroqarz olish istagida bo‘lgan mijozlar javob berishi lozim bo‘lgan aniq talablar, mikroqarz summasi, muddati, boshqa to‘lovlar, shuningdek, boshqa shartlar tegishli ma’lumotlarni umumiy foydalanish uchun ochiq joylashtirish orqali Mijozlar e’tiboriga yetkaziladi (Mijoz mikroqarz shartlari bilan www.ipotekabank.uz veb-saytida, masofaviy bank xizmatlari ko‘rsatish tizimi orqali, Bankning aloqa markazi orqali, shuningdek, ommaviy axborot vositalarida batafsil tanishishi mumkin). Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha ushbu ma’lumotlar Mijozga Bank filialida Filial xodimi tomonidan ham taqdim etiladi.

V. MIKROQARZNI SO‘NDIRISH TARTIBI

5.1. Mikroqarz bo‘yicha to‘lovlar Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan mikroqarzni so‘ndirish jadvalida ko‘rsatilgan muddatlarda va summalarda, hisob-kitob hisobvarag‘i, elektron hamyon hisobvarag‘i hamda bank plastik kartasida mavjud mablag‘lar hisobidan, memorial order orqali Bank tomonidan mikroqarz bo‘yicha to‘lovlar, hisoblangan foizlar, neustoykalar va boshqa to‘lovlar hisobga olinadigan hisobvaraqlarga o‘tkaziladi.

5.2. Mikroqarz bo‘yicha foizlar kredit to‘liq so‘ndirilgunga qadar, bir yilda 365 kun va har bir oydagi kunlarning haqiqiy sonidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

5.3. So‘ndirish jadvali Mijozning kredit olish uchun bergan arizasiga muvofiq, mobil ilovada skoring natijalari asosida inson omili ishtirokisiz avtomatik ravishda shakllantiriladi (filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha — filialda o‘tkazilgan skoring natijasi hamda Mijoz tomonidan mobil ilovada tanlangan summa va muddat asosida). So‘ndirish jadvali mobil ilova interfeysida aks ettiriladi va “Kreditni rasmiylashtirish” tugmasi bosilgandan so‘ng Bank va Mijoz o‘rtasidagi Shartnoma bo‘yicha so‘ndirish jadvali tuzilgan hisoblanadi. Filial xodimi so‘ndirish jadvali parametrlarini shakllantirishda ishtirok etmaydi va ularni o‘zgartira olmaydi; Filial xodimi tomonidan og‘zaki yoki boshqa shaklda berilgan ma’lumotlar so‘ndirish jadvalining o‘rnini bosmaydi, yakuniy shartlar mobil ilovada tasdiqlangan so‘ndirish jadvali bilan belgilanadi.

5.4. Agar mikroqarzni so‘ndirish uchun Mijozning elektron hamyon hisobvarag‘ida, bank plastik kartasida mablag‘ yetarli bo‘lmasa, kartadagi barcha mablag‘lar mikroqarzni so‘ndirishga yo‘naltiriladi va Bank tomonidan bank kartasining chiqim operatsiyalariga taqiq o‘rnatiladi, karta va elektron hamyonga tushayotgan mablag‘lar esa mikroqarz bo‘yicha qarzdorlik so‘ndirish jadvaliga muvofiq to‘liq so‘ndirilgunga qadar yechib olinadi.

5.5. Mijozning to‘lovlari mikroqarz bo‘yicha qarzni so‘ndirishga quyidagi tartibda yo‘naltiriladi:

a) kredit bo‘yicha neustoykalar;

b) muddati o‘tgan foizlar;

v) muddati o‘tgan qarzlar;

g) joriy foizlar;

d) joriy asosiy qarz.

5.6. Bank kartasining hisob-kitob hisobvarag‘ida mablag‘ yetarli bo‘lmagan taqdirda, Mijoz kreditni so‘ndirishning quyidagi turlaridan foydalanishi mumkin:

– bank kassasiga naqd pul mablag‘larini kiritish yo‘li bilan;
– omonat hisobvaraqlaridan o‘tkazish yo‘li bilan;
– boshqa banklar kartalaridan mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan;
– qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to‘lov turlari.

5.7. Qarz oluvchidan joriy to‘lov summasidan, ya’ni kreditni so‘ndirish jadvalida nazarda tutilgan summadan ortiq mablag‘ kelib tushganda, Bank Qarz oluvchining topshirig‘iga binoan ortiqcha summani kredit bo‘yicha asosiy qarzni so‘ndirishga o‘tkazadi. Qarz oluvchining topshirig‘i mavjud bo‘lmagan taqdirda, ortiqcha to‘langan pul mablag‘lari navbatdagi to‘lov muddati kelganda so‘ndirish jadvali bo‘yicha navbatdagi to‘lov hisobiga o‘tkaziladi, agar jadval bo‘yicha keyingi to‘lov mavjud bo‘lmasa, pul mablag‘lari Mijozga uning arizasiga binoan qaytariladi.

5.8. Agar mikroqarzni to‘lash sanasi bank ishlamaydigan kunga to‘g‘ri kelsa, to‘lov keyingi bank kunida amalga oshiriladi.

5.9. Agar mikroqarz bo‘yicha qarzdorlik sud qarorlarini ijro etish asosida so‘ndiriladigan bo‘lsa, Bankning tranzit hisobvaraqlariga kelib tushgan mablag‘lar sudning qaroriga muvofiq qarzdorlikni qoplashga yo‘naltiriladi.

5.10. Mijoz kreditni so‘ndirish jadvalini ketma-ket ikki marta yoki kalendar yil davomida 3 marta takroran buzgan taqdirda, Bank kreditni muddatidan oldin so‘ndirish bo‘yicha choralar ko‘radi.

5.11. Agar Mijoz kreditni muddatidan oldin so‘ndirsa, tizim keyingi to‘lovlar jadvalini qayta hisoblashni boshlaydi.

VI. MIKROQARZ TA’MINOTIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

6.1. Mazkur Shartnoma asosida ajratiladigan mikroqarz (shu jumladan, filialda boshlangan mikroqarz) Mijozning ish haqi hisobidan ta’minlanadi.

6.2. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha mikroqarz ta’minoti sifatida skoring natijalariga ko‘ra aniqlangan Mijozning ish haqi (shuningdek, unga tenglashtirilgan boshqa daromadlari) xizmat qiladi. Mikroqarz olish uchun Mijoz ish haqi kartasini mobil ilovaga biriktirishi shart.

VII. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Bankning huquqlari:

7.1.1. Shartnomaga muvofiq, Mijoz tomonidan majburiyatlar bajarilgan taqdirda mikromoliyalashtirish xizmatlarini ko‘rsatish yoki shartsiz xizmatlar ko‘rsatish;

7.1.2. Ariza beruvchiga mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni asoslantirilgan holda rad etish;

7.1.3. Mikroqarz ajratish hamda Shartnomaga muvofiq Mijozning majburiyatlari bajarilishini ta’minlash uchun ariza beruvchidan zarur hujjatlarni talab qilish;

7.1.4. To‘lovlar o‘z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda, qarz oluvchidan kreditni muddatidan oldin so‘ndirishni talab qilish;

7.1.5. So‘ndirish jadvaliga muvofiq asosiy qarz va foizlar bo‘yicha to‘lovlar kechiktirilgan taqdirda, bank plastik kartasi bo‘yicha chiqim operatsiyalariga taqiq o‘rnatish;

7.1.6. Qarz oluvchining mazkur Shartnoma shartlarini bajarishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va Shartnoma shartlari haqidagi ma’lumotlarni “Kredit axboroti tahliliy markazi” kredit byurosiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Kredit axborotining davlat reyestriga yuborish;

7.1.7. Mijozning ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni barcha tegishli tizimlardan olish;

7.1.8. Kredit va uning foizlarini to‘lash muddati kelganda, Bank Mijozning banklarda ochilgan plastik kartalariga tegishli barcha hisobvaraqlardan pul mablag‘larini akseptsiz tartibda hisobdan chiqaradi. Bunday operatsiyalar oldindan ogohlantirmasdan, kredit bo‘yicha to‘lov sanasi kelgan paytda hamda undan keyingi to‘lov sanalarida amalga oshirilishi mumkin va bunday operatsiyalar to‘g‘risida Mijozga bildirishnoma yuborilmaydi.

7.1.9. Mijoz bilan telefon orqali bo‘lgan suhbatlarni yozib olish va saqlash.

7.1.10. Mijoz bilan aloqa qilish uchun har qanday boshqa aloqa vositalaridan, shu jumladan elektron (raqamli) aloqa vositalaridan yoki huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa usullardan foydalanish.

7.1.11. Bank uchun zarur bo‘lgan ixtiyoriy shaklda barcha tizimlardan Mijozlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish va tahlil qilish.

7.1.12. Mijozning qarzdorligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uning turmush o‘rtog‘i va yaqin qarindoshlariga taqdim etish.

7.1.13. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha Mijozni identifikatsiya qilish va skoringni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar va hujjatlarni so‘rash, Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarning ishonchliligini tekshirish, shuningdek, Mijozga skoring natijasini ko‘rsatish;

7.1.14. Skoring natijasining amal qilish muddati tugagan yoki Mijozning ma’lumotlari o‘zgargan hollarda skoringni qayta o‘tkazish, moliyalashtirish summasini kamaytirish yoxud mikroqarz ajratishni rad etish;

7.1.15. Nizo yuzaga kelgan taqdirda dalil sifatida foydalanish uchun Mijozning Bank filialida va mobil ilovada amalga oshirgan harakatlarini, u tomonidan berilgan roziliklarni, shuningdek, skoring natijalarini (skoring so‘rovlari, ariza, aksept) elektron shaklda qayd etish, saqlash va ulardan foydalanish;

7.1.16. Mijozning autentifikatsiya ma’lumotlaridan uning o‘zi foydalanmayotganligi yoki firibgarlik holati mavjudligi yuzasidan shubha tug‘ilgan taqdirda, mikroqarz ajratishni to‘xtatib turish va Mijozni qo‘shimcha tasdiqlash choralarini ko‘rish;

7.1.17. Bank qonunchilik hujjatlarida yoki Shartnomada nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin. Mijoz tomonidan oferta shartnomasining aksept qilinishi Bankda yuqorida ko‘rsatilgan huquqlarning mavjudligi uchun asos hisoblanadi.

7.2. Qarz oluvchining huquqlari:

7.2.1. Mikroqarz xizmatlarini ko‘rsatish qoidalari bilan tanishish;

7.2.2. O‘z huquq va majburiyatlari, xususan, mikroqarz xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha xarajatlar to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumot olish;

7.2.3. Shartnomada ko‘rsatilgan tartib va muddatlarda shartnoma shartlarining bajarilishini talab qilish;

7.2.4. Bu haqda Bankni kamida uch bank kuni oldin xabardor qilgan holda kreditdan foydalanishni rad etish;

7.2.5. Mikroqarzni muddatidan oldin so‘ndirish;

7.2.6. Filial xodimidan skoring natijasi (limit, foiz stavkasi va muddatlar) to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olish hamda skoring natijalariga ko‘ra mikroqarz olish yoki mobil ilovada arizani davom ettirmaslik to‘g‘risida mustaqil qaror qabul qilish;

7.2.7. Skoring natijasi, shuningdek, Filial xodimining harakatlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan Bank filialiga yoki Bankning aloqa markaziga murojaat qilish;

7.2.8. Qonunchilikka yoki Shartnomaga muvofiq, Mijoz boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

7.3. Bankning majburiyatlari:

7.3.1. Mijozga uning huquq va majburiyatlari, xususan, mikromoliyaviy xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘liq barcha xarajatlar to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumot berish;

7.3.2. Mikromoliyalashtirish xizmatlarini Shartnomada nazarda tutilgan muddatlarda va tartibda ko‘rsatish;

7.3.3. Filialda boshlangan mikroqarz bo‘yicha Mijozga skoring natijasi (limit, foiz stavkasi, muddatlar) va uning amal qilish muddati to‘g‘risida to‘liq va ishonchli ma’lumot taqdim etish;

7.3.4. Filial xodimi tomonidan Mijozni identifikatsiya qilish va skoring o‘tkazish Bankning ichki qoidalari hamda qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlash;

7.3.5. Filialda va mobil ilovada taqdim etilgan Mijozning shaxsga doir ma’lumotlari maxfiyligini ta’minlash hamda ulardan faqat ushbu Shartnomada nazarda tutilgan maqsadlarda foydalanish;

7.3.6. Qonunchilikka yoki Shartnomaga muvofiq, Bank zimmasiga boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

7.4. Mijozning majburiyatlari:

7.4.1. Mikroqarz xizmatidan foydalanishdan oldin mazkur oferta shartlari bilan tanishish;

7.4.2. Mikroqarz ajratilganda va boshqa hollarda, mobil ilovaning texnik nosozligi sababli bank kartasiga, elektron hamyon hisobvarag‘iga yoki Mijozning boshqa hisobvaraqlariga ortiqcha pul mablag‘lari kelib tushgan taqdirda, bu haqda darhol Bankka xabar berish va ushbu pul mablag‘larini Bankka qaytarish;

7.4.3. Majburiyatlarni Shartnomada ko‘rsatilgan tartibda va muddatlarda bajarish, kreditni hamda u bo‘yicha hisoblangan foizlarni mazkur Shartnomada ko‘rsatilgan muddatlarda va miqdorlarda to‘lash;

7.4.4. Mikroqarz ajratilishi uchun skoring tahlili asosida aniqlangan ish haqi (va unga tenglashtirilgan to‘lovlar) bank kartasiga kelib tushishini ta’minlash (ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni boshqa usulda olmaslik);

7.4.5. SMS-xabarnomalar yuboriladigan telefon raqami o‘zgargan taqdirda, bu haqda Bankni xabardor qilish va yangi mobil telefon raqamini taqdim etish, shu jumladan filialda skoringdan o‘tishda foydalanilgan telefon raqami o‘zgargan taqdirda Bankka murojaat qilish;

7.4.6. Manzili, ish joyi, familiyasi yoki ismi o‘zgarganda, shuningdek, mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta’sir qiluvchi boshqa o‘zgarishlar yuz berganda, 5 kun ichida Bankni xabardor qilish;

7.4.7. Filialda va mobil ilovada o‘zi haqida to‘g‘ri va to‘liq ma’lumot taqdim etish;

7.4.8. Autentifikatsiya ma’lumotlarini (mobil ilovaga kirish paroli, SMS-kod va boshqalar) Filial xodimiga va boshqa uchinchi shaxslarga bermaslik;

7.4.9. Qonunchilikka yoki Shartnomaga muvofiq, Mijoz zimmasiga boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

8.1. Mazkur Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish Shartnoma shartlari hamda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi.

8.2. Mikroqarz bo‘yicha asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilgan taqdirda, Qarz oluvchi kechiktirilgan butun davr uchun amalda muddati o‘tgan qarzdorlik summasining 180 foizi miqdorida neustoyka to‘laydi.

8.3. Foizlar belgilangan muddatda to‘lanmagan taqdirda, Qarz oluvchi Bankka to‘lov muddati kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o‘tgan to‘lov summasining 2 foizi miqdorida, biroq muddati o‘tgan to‘lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to‘laydi.

8.4. Mazkur Shartnoma shartlari lozim darajada bajarilmaganligi uchun neustoyka to‘lanishi Taraflarni o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

8.5. Filial xodimi tomonidan og‘zaki yoki boshqa shaklda berilgan ma’lumotlar Mijoz tomonidan mobil ilovada tasdiqlangan so‘ndirish jadvaliga zid bo‘lgan taqdirda, so‘ndirish jadvalida ko‘rsatilgan shartlar qo‘llaniladi; bunday holatda Mijoz Bankka murojaat qilish huquqiga ega.

8.6. Mijoz autentifikatsiya ma’lumotlarini Filial xodimiga yoki uchinchi shaxslarga berganligi, shuningdek, ularning maxfiyligini ta’minlamaganligi oqibatlari uchun mustaqil ravishda javobgar bo‘ladi.

IX. NIZOLARNI HAL ETISH

9.1. Taraflar mazkur Shartnoma bo‘yicha yuzaga keladigan har qanday nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etadilar.

9.2. Agar ko‘rsatilgan nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal etilmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, kredit ajratgan Bank filiali joylashgan hududdagi fuqarolik ishlari bo‘yicha sudda hal etiladi.

X. FORS-MAJOR HOLATLAR

10.1. Agar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaslik Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan, Taraflar oldindan ko‘ra olmagan va oqilona choralar bilan oldini olish imkoniga ega bo‘lmagan favqulodda xususiyatga ega hodisalar (zilzila, suv toshqini, yong‘in va boshqa tabiiy ofatlar) mazkur Shartnomaning bajarilishiga to‘sqinlik qiluvchi yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida yuzaga kelgan bo‘lsa, Taraflar majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod etiladi.

10.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda, ushbu holatlarga duch kelgan Taraf boshqa Tarafni bunday holatlar yuzaga kelganligi to‘g‘risida darhol xabardor qiladi hamda so‘rovga ko‘ra, ushbu holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi tegishli organ tomonidan berilgan hujjatni taqdim etadi.

XI. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

11.1. Mazkur Shartnoma Mijoz tomonidan “Ipoteka-bank” ATIB mobil ilovasi orqali tasdiqlangan sanadan boshlab tuzilgan hisoblanadi va yuridik kuchga ega bo‘ladi. Mijozning Bank filialida skoringdan o‘tishi Shartnoma tuzilishiga olib kelmaydi.

11.2. Shartnoma mikroqarz bo‘yicha kreditlash davri mobaynida amal qiladi va Taraflar mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarganidan so‘ng bekor bo‘ladi.

11.3. Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar Bankning veb-sayti, Bank filiallaridagi axborot stendlari va mobil ilova orqali Mijozlar e’tiboriga yetkaziladi.

11.4. Shartnoma istalgan vaqtda Mijoz tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin, bunday holatda, Shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi ariza Bankka taqdim etilganida, Bank bilan yakuniy hisob-kitob amalga oshirilishi va qarzdorlik to‘liq so‘ndirilishi lozim.

11.5. Mijoz Bankning yozma roziligisiz mazkur Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o‘tkazishga haqli emas.

11.6. Shartnomaning bekor qilinishi Taraflarni Shartnoma amal qilgan davrda o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarishdan ozod etmaydi.

XII. YAKUNIY QOIDALAR

12.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan holatlar amaldagi qonunchilikka muvofiq hal etiladi.

12.2. Taraflarning hech biri Shartnomani qog‘oz shaklida imzolashga va saqlashga majbur emas hamda Mijoz tomonidan ushbu Shartnomaning 3.1-bandiga muvofiq harakatlar amalga oshirilgan paytda mobil ilovada joylashtirilgan Shartnoma tahriri qonuniy kuchga ega bo‘ladi.

12.3. Mijoz tomonidan filialda va mobil ilovada berilgan roziliklar, skoring natijalari hamda Mijozning mikroqarz olish bo‘yicha harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar Bankning axborot tizimlarida elektron shaklda saqlanadi va Taraflar o‘rtasida nizo yuzaga kelgan taqdirda dalil sifatida ishlatilishi mumkin.

XIII. BANK REKVIZITLARI

Nomi: “Ipoteka-bank” ATIB Bosh ofisi

Manzil: Toshkent shahri, Shahrisabz ko‘chasi, 30-uy

STIR: 202858483

MFO: 00937

Litsenziya: 2021-yil 25-dekabrdagi 74-son

Veb-sayt: www.ipotekabank.uz